



INTERNET
Google Scholar



ORIENTAL RENAISSANCE:
INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES



ISSN
2181-1784
SJIF: 5.423



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

**№ 3
2021**





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

ISSN 2181-1784

VOLUME 1, ISSUE 3

Impact Factor: 5.423

**APRIL
2021**

NAMOYISH TAJRIBALARI ORQALI O'QITISHDA O'QUVCHILAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Soyipov Jasurali Japaralievich

Namangan davlat universiteti

Fizika o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Zaxidov Ibroximjon Obidjonovich

Namangan davlat universiteti

Fizika o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabalarida fizikadan mashg'ulotlar samamaradorligini oshirishda namoyish tajribalarining o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Namoyish tajribalarini maktab laboratoriya asbob-uskunalarli orqali o'tkazishning texnika va metodi bitta qo'shimcha mavzu misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, fizika o'qitish, o'quvchi, fizik tajribalar va asboblar, namoyish tajribasi va texnikasi, dars samaradorligi.

Abstract: This article explains the role and importance of demonstration experiments in improving the effectiveness of physics lessons in general secondary schools. The technique and method of conducting demonstration experiments using school laboratory equipment are illustrated in one additional topic.

Keywords: general secondary education, physics teaching, student, physical experiments and tools, demonstration experience and techniques, lesson effectiveness.

Аннотация: В статье разъясняется роль и важность демонстрационных экспериментов в повышении эффективности уроков физики в общеобразовательных школах. Техника и методика проведения демонстрационных экспериментов с использованием школьного лабораторного оборудования поясняются в одной дополнительной теме.

Ключевые слова: общее среднее образование, обучение физике, студент, физические эксперименты и инструменты, демонстрационный опыт и методики, эффективность урока.

KIRISH

Ta'lism jarayoni sifati ta'lism standartlari, ta'lism dasturlari, ta'lism jarayoniga jalb qilingan professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyati, ta'lism oluvchilar salohiyati, ta'lism berish jarayoni texnik vositalari, ta'lism texnologiyalari, ta'lism jarayonini boshqarishning sifat darajasi kabi omillar bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "kelgusi yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni taklif etaman. Shu maqsadda kelgusi

yilda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ushbu fanlarni o‘qitish sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan maktablar ochish, malakali pedagoglarni jalg etish kabi tizimli ishlar amalga oshiriladi” deb aytilgan [1]. Bunga javoban biz pedagoglar fizika o‘qitishni yangi sifat darajasiga chiqarishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan respublikamizda ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika o‘qitish metodlarini yanada takomillashtirishni taqazo qilmoqda. Fizika o‘qitishdagi muhim metodlardan biri eksperimental metodlar bo‘lib, bunda namoyishli tajriba, laboratoriya ishlari va boshqalarni qo‘yishni takomillashtirish zaruriyatি borligini ko‘rsatadi. Chunki amalda laboraratoriya ishlari va namoyishli tajriba samarali tashkil etilmaydi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Fizika o‘qitishda eksperimental metodi o‘zining yuqori darajali ko‘rgazmaliligi bilan pedagogik jihatdan eng yaxshi samara beradigan metod hisoblanadi. O‘quvchilar o‘rganilayotgan fikaviy hodisalar, tushunchalar, qonuniyatlarning juda qo‘pchilik qismini namoyish texnikasi va metodikasiga javob beruvchi puxta ishlab chiqilgan tajribalar sistemasisiz yaxshi o‘zlashtira olmaydi. Bu narsa amalda pedagog va psixolog olimlar tomonidan mukammal o‘rganilgan bo‘lib, eshitish, yozish, ko‘rish va bajarish orqali uzoq vaqt bilimlarni yodda saqlash mumkin ekanligi isbotlangan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizik tajribalarni quyidagi turlarga bo‘linadi:
o‘qituvchining namoyish tajribasi;
laboratoriya ishlari;
frontal tajribalar;
fizikaviy praktikum ishlari;
eksperimental tajribalar;
sinfdan tashqari tajribalar va boshqalar [2].

Umumiy o‘rta ta’limning fizika eksperimentining bu hamma turlari o‘quvchilarning bilish faoliyatidagi onglilik, qo‘rgazmalilik, faoliik prinsiplarini va fizikaga qiziqishlarini oshishiga yordam beradi. Albatta tajribalarning hamma turlari bilan hal qilinadigan umumiy masalalardan tashqari, har bir tur tajriba o‘z maqsadiga ko‘ra o‘ziga xos texnikasi va o‘tkazish metodikasiga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 8-sinfi Fizika darsligida “Elektr zaryad” mavzusini tushuntirishda [3] hozirda amalda qo‘llanilib kelinayotgan elektr bo‘limidan “Elektrometrik kuchaytirgich yordamida elektrostatikaning asosiy tajribalarini bajarish” nomli laboratoriya ishidan [4] o‘quvchilarga berilayotgan bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari uchun qo‘srimcha namoyish tajribasi sifatida foydalanish mumkin.

Tajribaning maqsadlari: ikki ishqalanish tayoqchasini bir biriga ta’sir etkazganda zaryadlarning ajralishini tekshirish; ishqalanish tayoqchasi ishqalash

folgasi bilan ishqalanganda zaryadlar ajralishini tekshirish; ishqalanish tayoqchalar har xil ishqalash folgalar bilan ishqalangandan keyin zaryadlangan tayoqlarning qutblarini aniqlash.

Tajribaning qisqacha nazariyasi. Zaryadlar ikki materialni bir-biriga ishqalaganda yoki ta'sir etkazganda hosil bo'lishi mumkin. Tajribalarga ko'ra materiallarning biri musbat ikkinchisi manfiy zaryadga ega bo'ladi. Bundan tashqari hosil bo'lgan zaryadlarning miqdori bir-biriga teng bo'ladi. Agar materiallarda hosil bo'lgan zaryadlarni bir vaqtida o'lchasak ular bir-birini kompencatsiyalaydi. Material zaryadining ishorasi bir materialning o'ziga bog'liq emas, ya'ni ikkinchi materialning xossalariiga ham bog'liq. Ikki material bir-biriga ishqalanganda zaryadlarning hosil bo'lishini aniqlash uchun elektrometrik kuchaytirgichdan foydalaniladi. Bu qurilma juda katta kirish qarshiligidagi (1013 Om) va juda kichik chiqish qarshiligidagi (1 Om) ega bo'lgan asbob hisoblanadi. Kuchaytirgichning kirishi 2 ta sig'imiy ulash yo'li bilan va zaryadlarni toplash uchun Faradey shashkasidan foydalanib asbob yordamida juda kam miqdordagi zaryadlarni o'lhash imkonini beradi. SHunday qilib tekizish va ishqalash yo'li bilan hosil qilingan zaryadlar yuqori aniqlik bilan topilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Tavsiya etilayotgan namoyish tajribasining asbob uskunalarini va uni o'tkazish.

Namoyish tajribalar yangi o'quv materialini o'zlashtirishda muhum rol o'ynashi bilan bar qatorda, ular o'quvchilarda eksperimental ko'nikma va malakalar hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Namoyish tajribalarni idrok qilish va anglash jarayonida o'quvchilar fizikaviy hodisalarini kuzatish, o'lhash natijalarini ishlash, turli fizikaviy asboblardan foydalanish va boshqalarni o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarni frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, tajriba vazifalar yoki fizikadan praktikum ishlari tarzida amalga oshiriladigan mustaqil tajribalarga tayyorlaydi.

O'quv materialini takrorlashda namoyish tajribalarning o'rni juda katta. Takror o'tkazilgan tajribalar o'quvchilarga avval o'rganilga materialni xotiralarida yaqqolroq

tiklash, fizikaviy hodisalar va qonuniyatlar mohiyatini chuqurroq bilib olish, o'rganilayotgan ob'ektlarning avval e'tibordan chetda qolgan hususiyatlarini payqab olish imkonini beradi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Istalgan namoyishli tajribaning pedagogik samadorligiga ya'ni uni o'quvchilar to'la idrok qilishlari va anglashlariga faqat ma'lum namoyishli tajribalar ko'rsatish metodikasidagina erishish mumkin. O'quv materialini darsda bayon qilish bilan namoyish tajribasi o'rtasidagi bog'lanish dastlabki uslubiy talablardan bir hisoblanadi. Bunday bog'lanishni amalga oshirish uchun namoyishli tajribalar qisqa muddatli bo'lishi kerak. Xuddi shuning uchun ham namoyishli tajribalarning ko'pchiligi sifat jihatidan ko'rildi (ularni mashg'ulotlarda o'tkazish uchun miqdor jihatdan ko'rildigan tajribalarni qo'yilishiga nisbtan ancha kam vaqt talab qilinadi). Namoyishli tajribalar qisqa muddatli bo'lishiga qaramay ular nihoyatda ishonchli va tushunarli bo'lishi lozim. Namoyish tajribalarning bu muhim sifatlari asosan ularni qo'yish texnikasiga bog'liq.

Namoyish texnikasi namoyish tajribalarini o'tkazish uslubi bilan chambarchas bog'liqdir. Namoyish texnikasi deganda xavfsizlik texnikasiga rioya qilinganda namoyishli tajribaning eng katta samarasini va uning o'quvchilar tomonidan bevosita idrok qilinishini ta'minlovchi shart-sharoitlar tushuniladi.

XULOSA

Istalgan tajribaning samaradorligi bиринчи navbatda maktab fizika asboblarining sifatiga bog'liq namoyish asboblariga alohida talablar qo'yiladi. Bularga bиринчи navbatda yuqori texnikaviy sifat, qurilmalarning soddaligi, etarlichka katta o'lcham, chiroqli tashqi ko'rinish kiradi. O'qitishning ko'rgazmali bo'lishi uchun tajriba asboblarining sxemalarini yig'ishda eng muhim detallari o'quvchilarga yaxshi ko'rinish turishi kerak. Yuqoridagi kabi barcha mavzularda namoyish eksperimentlarini tayyorlab, mashg'ulotlarni o'tilishi o'quvchilar tomonidan mavzularni o'zlashtirish samaradorligi va ularning faolligi hamda fanga bo'lgan qiziqishlarining yanada ortishiga sabab bo'ladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 29 dekabr 2020 yil.
2. Morgolis A.A., Parfenteva N.E., Ivanova L.A. Maktab fizika eksperimentlaridan praktikum. –T.: O'qituvchi, 1980.
3. Xabibullaev P., Boydedaev A., Baxromov A., Usarov J., Suyarov K., Yuldasheva M. Fizika 8-sinf darsligi. –T.: O'qituvchi, 2019.
4. https://www.yottavolt.com/wp-content/uploads/2019/10/Leybold_Physics_Experiments_LD_DIDACTIC.pdf

Dononov J.U., Axmedova D.A. // <i>Shakarlik-Astana №1, quduq bo'yicha burg'ilash materiallari tahlili.....</i>	676
Soyipov J.J., Zaxidov I.O. // <i>Namoyish tajribalari orgali o'qitishda o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish yo'llari.....</i>	682
Nurmatov N.O'. // <i>XVIII asrning birinchi choragida Rossiyada davlat boshqaruvi islohoti.....</i>	686
Vahobjonov A.A. // <i>Bag'dod tumanida xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishning geografik jihatlari.....</i>	699
Ergashyeva M.A., Alianova X.I. // <i>Fundamental fanlarga e'tiborni kuchaytirish davr talabi</i>	704
Mohammad Hassan Bashiri ibn Mohammad Omar // <i>Review of relationship between finance and growth in Afghanistan.....</i>	711
Nezam Mohammad Haron ibn Nezamuddin // <i>Mohammad Amin Matin Andxuiyning hayoti va foaliyati.....</i>	720
Юсупова С.Н., Алексеева В.С. // <i>Причины возникновения и формы проявления конфликтов в молодой семье.....</i>	725
Safarov B.O'. // <i>Transformatsiya jarayonida davlat va jamiyat munosabatlari va ularning o'zaro ta'siri.....</i>	740
Mamatdaliyeva H. // <i>Bloom's taxonomy and its role in academic writing and reading skills training at english classes.....</i>	745
Maxmudova D.J. // <i>Arab tilshunosligida Zoida harflar (affikslar)ga bo'lgan yondashuvlar.....</i>	750
Komilova N.Q., Nosirov B.G'. // <i>Farg'onha viloyatida turizm rivojlanishininghududiy tafovutlari va ularni guruqlashtirish</i>	759
Isamukhamedova M. // <i>The role of innovative methods in teaching grammar communicatively in EFL classes.....</i>	766
Djabbarov O.Dj. // <i>Teylor formulasi va uning turli matematik masalalarga qo'llanilishi.....</i>	773
Vohidov B., Vohidov A. // <i>Uchburchakning ba'zi geometrik xossalari haqida</i>	779
Махматкулов Т., Тағаев Д., Ибодуллаев М. // <i>Расчет соединения арматурыс древесиной при сжатии с упором арматурного стержня в тюрец.....</i>	785
Mavlonov O'M. // <i>Globallashuv sharoitida yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish – davr talabi.....</i>	793
Abdullayev A. // <i>"Tarixi Yaminiy" – ajdodlarimiz kechmishiga doir muhim manba sifatida.....</i>	798
G'ofurova Sh. // <i>"Boburnoma" asridagi tilga oid ilmiy-badiiy topilmalar.....</i>	810
Begmatova S.M. // <i>Kadzuo Isiguro asarlarida imuminsoniy tamoyillar tasviri</i>	818
Исмоилова О.Д. // <i>Освальд Шпенглер қарашларида маданият структураси таҳлили</i>	823